

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATKULOV ZARIFBEK SHARIFJONOVICH

**FARG‘ONA VODIYSIDA TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Mamatkulov Zarifbek Sharifjonovich

Farg'ona vodiysida turistik xizmatlarni rivojlantirish mexanizmlarini
takomillashtirish 3

Маматк Маматкулов Зарифбек Шарифджонович

Совершенствование механизмов развития туристических услуг в
Ферганской долине..... 29

Mamatkulov Zarifbek Sharifjonovich

Improvement of mechanisms for the development of tourist services in the
Fergana Valley 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATKULOV ZARIFBEK SHARIFJONOVICH

**FARG‘ONA VODIYSIDA TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4846 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Abdullajon Topilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Alimova Guzal Alisherovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich
iqtisodiyot fanlari bo'ch falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019 I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "26" kuni soat 10-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1822 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75, faks: (99871) 239-28-75; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "06" 11 kuni tarqatildi.
(2025-yil "06" 11 dagi 99 - raqamli reyestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

A.A. Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash huzuridagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida turistik xizmatlarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish global iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlarini yaratish, valyuta tushumlarini oshirish va mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy disproporsiyalarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, logistika va infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali turistik tajribaning samaradorligi yuksaladi, bu esa raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, zamonaviy turistik xizmatlar mexanizmlari mahalliy aholi daromadini oshirishi, investitsion muhitni yaxshilashi va madaniy merosni saqlash hamda targ'ib etishda turtki vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, turistik xizmatlarni samarali rivojlantirish milliy iqtisodiyotlarning diversifikatsiyasi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega. Butun jahon turizm tashkiloti (BTT) ma'lumotlariga ko'ra, «Xalqaro turizm 2024-yilda pandemiyadan oldingi darajani tiklashi, ya'ni 2019-yildagi darajadan 2 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. 2023 yilda 2019 yilga nisbatan tiklanish jarayonini 100% holatida taqqoslama solishtirilganda O'rta Osiyo 122%, Afrika 96%, Yevropa 94%, Amerika 90%, dunyo bo'yicha 88% va Osiyo tinch okeani bo'yicha 65%ni tashkil etgan»¹. Jahon mamlakatlarida turizm sohasini mavjud salohiyat doirasida rivojlantirish hisobiga soha taraqqiyotini ta'minlashdagi faoliyatni yangicha yondashuv asosida tashkil etish hamda tiklanish ssenariylarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Jahonda turizm sohasini innovasion rivojlantirish, ekologiya va bio xilmaxillikni saqlash, atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish maqsadida «yashil» turizmni rivojlantirish, barqaror va umri boqiy turizmni rivojlantirish, sohada resurs komponentlardan maqsadli va samarali foydalanish, turistik xizmatlar nomenklaturasini ko'paytirish kabi yo'nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada mamlakatimizda xalqaro integratsiyalashuvning natijadorligi asosidagi turizm xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish, turizm faoliyatini samarali tashkil qilish, hududlarning turistik jozibadorligini oshirish, turizm infratuzilmalarini innovasion asosda rivojlantirish bo'yicha chuqur ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida turizmni, avvalambor, xususiyl sektorida rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish, turizm xizmatlarining bozor tarmog'idagi sohasi bo'lmish strategik menejment va marketingni o'z ichiga olgan boshqaruvning kreativ usullarini qo'llash, turistik salohiyatdan maqsadli foydalanish hamda xalqaro integratsiyalashuv asosida xorijiy mamlakatlardan ko'p qiymatli turistik xizmatlar va mahsulotlar samarasini o'zlashtirish kabi tadbirlar yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan “O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish

¹UNWTO World Tourism Barometer and Statistical Annex, January 2022. 20 (1). DOI: <https://doi.org/10.18111/wtobarometereng>.

uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish” dasturi doirasida turizm sohasi va infratuzilmasini jadal rivojlantirish asosida «Mehmonxona – transport – turoperator – savdo va servis» korxonalari kooperatsiya asosida faoliyat yuritadigan 30 ta yirik turizm klasterlari manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish hamda hududlarda 4 mingta yangi mehmonxona, mehmon uylari va xostellar tashkil etib, mehmon o‘rinlari sonini kamida 2 barobar oshirish”² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda turistik tashkilotlar faoliyatini rivojlanishida mavjud turistik resurs komponentlardan maqsadli foydalanish, turizm sohasining hududiy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’sir etuvchi faoliyat samaradorligini oshirish, turistik tashkilotlar raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko‘rish bilan bog‘liq mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024-yil 12-yanvardagi PF-20-son “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turizm sohasi va uning tarkibiy tuzilmalarini rivojlantirish hamda rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan G.Krouch, J.Ritchi, A.Athiyaman, J.Swarbrooke, M.Clawson, J.Knetsch, M.Smith, L.Puczko kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi³. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida turizm sohasi, shuningdek,

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

³ Crouch G. I., Ritchie J. R. B. Tourism, competitiveness, and societal prosperity //Journal of business research. – 1999. – T. 44. – №. 3. – 137-152 pp.; Athiyaman, A. (1997): Knowledge Development in Tourism: Tourism Demand Reserch, Tourism Management.; Swarbrooke J. The Development and Management of Visitor Attractions.

uning tarkibiy tuzilmalarining rivojlanishi, sohani hududiy resurs salohiyatini baholash asosida rivojlantirishni nazariy jihatlarini hamda undan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlari muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida hududlarda turistik xizmatlarini rivojlantirishning nazariy hamda uslubiy jihatlarini M.I.Nazayeva, N.A.Voskolovich, M. B.Birjako, T.YE.Karmanova, S.S.Nikolayev, YE.S.Bogomolova, D.S.Ushakov, S.A.Sevastyanova, N.N.Lisenko, YE. I.Bogdanov, Y.A.Xudenkix, A.V.Drozdo, V.F.Danilchuk, N.S.Kudryavsev, S.A.Stepanova kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan⁴. Ushbu tadqiqotlarda MDH olimlari tomonidan turizm sohasi, jumladan turistik klasterlar faoliyatini rivojlantirish hamda hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish tadqiq etilgan hamda soha rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholashga e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston hududlarida turizm sohasini, jumladan turizm tarmoqlarini rivojlantirish mamlakatimizda N.T.Tuxliyev, M.Q. Pardayev, A.A.Eshayev, O.H.Hamidov, I.S.Tuxliyev, Abduvohidov A.M. M.T.Aliyeva, M.T.Alimova, B.SH.Safarov, A.N.Norchayev, Ibragimov N.S., I.A.Axmedov, G.A.Alimova, X.F.Ochilova, S.SH.Xalilov, A.T.Mirzayev, B.Ollanazarov, A.Oripov kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan⁵.

Butterworth-Heinemann, 1995.; Clawson M., Knetsch J. The Economics of Outdoor Recreation. Johns Hopkins University Press, 1966.; Melanie K. Smith, Laszlo Puczko. Health, Tourism and HospitalitySpas, Wellness and Medical Travel. ISBN 9780415638654 544 Pages Published December 10, 2013 by Routledge.

⁴ Назеева М.И. Территориальные особенности развития сферы туризма и её влияние на экономику на примере Чеченской Республики. Дисс-я на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Майкоп: 2017 г. –С. 29.; Восколович, Н.А. Маркетинг туристских услуг: учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям / Н.А.Восколович. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 207 с.; Биржаков, М. Б. Экономическая безопасность туристской отрасли. / М. Б. Биржаков. - Москва; Санкт-Петербург: "Герда", 2007. – 458 с.; Карманова, Т.Е. Статистика туризма / Tourism statistics: учебник для бакалавров. 2-е изд., перераб. и доп. –М.: КНОРУС, – 2012. – 115 с.; Николаев С.С. Стратегия формирования единого туристского пространства. автореферат дисс. канд. экон. наук. –Санкт-Петербург. –2000.; Богомоллова Е.С. Теоретико-методологические основы управления развитием туристско-рекреационного комплекса региона. Дис. д-ра.экон.наук. –Майкоп, 2008. –346 с.; Ушаков Д.С. Стратегическое планирование в туризме. –Ростов н/Д: Феникс, 2007. –285 с.; Севастьянова С.А. Региональное планирование развития туризма и гостиничного хозяйства: учеб, пособие. –М: КНОУРС, 2007. –256 с.; Лысенко Н.Н. Совершенствование оценки потенциала туристского комплекса: на примере Сахалинской области: дис. ... канд. экон. наук. –Хабаровск, 2009. –174 с.; Богданов Е. И. Планирование на предприятии туризма. — СПб.: Бизнес-пресса, 2005. - 288 с.; Худеньких Ю. А. Подходы к оценке туристского потенциала территории на примере районов Пермского края // География и туризм: сб. науч. тр. –Пермь: ПГУ, 2006. –С. 217–230.; Дроздов А. В. Выявление, оценка и использование туристских ресурсов России. Современная ситуация, проблемы и пути их решения // Актуальные проблемы туризма: сб. науч. тр. Российской международной академии туризма. – Вып. 1. –М.: Меркурий, 2007. –С. 228–250.; Данильчук В.Ф. Особенности формирования и развития туристических предприятий: Монография / НАН Украины. Ин-т экономики пром-ти. –Донецк, 2006. –240 с.; Кудрявцев Н.С., Трабская Ю.Г., Хорева Л.В. Туристские зоны как новый элемент развития и продвижения дестинации на национальный и мировой рынки услуг. // Экономика предприятий, регионов и отраслей, 24.09.2018. С. 122.; Степанова С.А. Развитие туристского комплекса региона на основе повышения инвестиционной привлекательности туристско-рекреационных территорий: автореф. дис. ... д-ра эк. наук. – Санкт-Петербург: СПбГИЭУ, 2010. С. 9.

⁵ Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – С.24.; Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. - Samarqand: SamISI, 2006. - 137 b; A.A.Eshayev. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida) Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlar turizm sohasini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish, turizm salohiyatini yanada oshirish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib, turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Biroq ular tomonidan turizm xizmatlarini hududiy rivojlantirishda turistik resurs salohiyatini baholash, hududlarda turistik xizmatlarni rivojlantirishda raqobat ustunligi hamda risklarni pasaytirish, hududlarda turizm xizmatlarini strategik rivojlantirishda hududlarni turistik faoliyat turlari bo'yicha zonalashtirish kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan. Mamlakatimizning yuqori turistik salohiyatga ega hududlarida turizm sohasini ustuvor tarmoq sifatida rivojlantirish va faoliyatning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish, hududlar kesimida turistik faoliyat va uning infratuzilmasini tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Farg'ona davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Farg'ona viloyati Farg'ona tumanida turistik-rekreatsiya faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tizimlashtirish orqali rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Farg'ona vodiysida turizm faoliyatini hududiy rivojlantirish hamda boshqaruvning hududiy jihatlarini qamrab oluvchi mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2019. – 246 b.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана: Дисс...канд. экон. наук. -С.: СамИСИ, 2006. -С.155.; Boltabayev M.R, Tuxliyev I.C. Turizm: nazariya va amaliyot. –T.: Fan va texnologiya, 2018, - 400 b.; Abduvoxidov A.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorini tadqiq etish masalalari. //Xalqaro moliya va hisob 1(6). 2020, s. 1-10; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlar (O'zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. –Samarqand: SamISI, 2019. –287 b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida).: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. - 265 b.; Safarov B.SH. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - S.: SamISI, 2016. - 254 b.; Norchayev A.N. Xalqaro turizm rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'siri (Ispaniya misolida): Iqt.fan.nomz. diss. - T. 2004. - 136 b.; Ibragimov N.S. Turistik hudud barqaror raqobatbardoshligiga erishishning ilmiy asoslari. DSc. dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2021y; M.M.Irmatov, I.A.Axmedov. Turizm rivojlanishini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. TDIU, 2004. -132 b.; G.A.Alimova. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash omili sifatida harbiy rekreatsiyani faollashtirishning uslubiy asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TDIU. 2024. – 228-b.; X.F.Ochilova. turizm sohasida ta'lim tizimini takomillashtirishning uslubiy asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TDIU. 2024. – 225-b.; S.SH.Xalilov. Milliy turizm tarmog,ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo'nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TDIU. 2024. – 212-b.; Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TDIU. 2021. – 254-b.; Salayev S., Ollanazarov B. Turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari: monografiya. –Urganch: "Quvonchbek-Mashhura" MCHJ nashriyoti. 2020. –188 b.; Oripov A.A. Iqtisodiyotdagi raqamli o'zgarishlar sharoitida xizmatlar sohasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TDIU. 2021. – 147-b.

Tadqiqotning vazifalari:

turizm faoliyati shakllanishi va rivojlanishi hamda faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonlaridagi hududiy yondashuvlarning nazariy va uslubiy jihatlarini ilmiy tadqiq etish;

turizm faoliyati hududiy rivojlanishining xorijiy tajribalari va ularda faoliyatni rivojlantirish modellarining qo'llanilishini nazariy jihatdan tadqiq etish;

Farg'ona vodiysidagi turizm faoliyatini rivojlantirishda resurs salohiyatini baholash;

hududlarda turizm faoliyati doirasidagi omillar ta'sirini baholash asosida rivojlantirish modelini tanlash hamda faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni boshqarish imkoniyatlarini tahlil qilish;

turizm subyektlari faoliyati rivojlanishini ko'p omilli bog'lanishlar asosida modellashtirish hamda hududiy turizm faoliyatida boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

Farg'ona vodiysida turizm faoliyatini strategik boshqarishda hududlarni zonalashtirish istiqbollarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg'ona vodiysidagi turizm sohasi korxonalari faoliyatini rivojlantirish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib hududiy turizm korxonalari faoliyatini rivojlantirish va boshqarish jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, ekspert baholash usuli, statistik tahlil va guruhlash, tizimli tahlil, anketa so'rovlari o'tkazish, ularni tahlil etish, SWOT-tahlil, ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hududlardagi tarixiy-madaniy, alohida qo'riqlanadigan hududlar, tabiiy shart-sharoitlar va infratuzilmaning nisbiy salohiyat ko'rsatkichlarini vazn koeffitsiyentlari bilan bog'lanishini hisobga oluvchi hududning umumiy turistik resurs salohiyatini baholash uslubiyotini takomillashtirish asoslangan;

hududiy darajadagi turizm xizmatlari sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi turizm xizmatlarini ko'rsatish natijasida hudud iqtisodiyotiga kirib keluvchi birlamchi va ikkilamchi mablag'lar oqimini tarmoq faoliyatiga qayta yo'naltirish hisobiga takomillashtirilgan;

Farg'ona vodiysidagi hududlarni zonalashtirish asosida "Farg'ona vodiysi turistik halqasi"ni tashkil etish negizida vodiya bo'yicha qisqa va uzoq masofali turistik marshrutlarni ishlab chiqish orqali mavjud hududiy turistik resurs salohiyatini bir butun zanjirga biriktirish taklifi asoslangan;

Farg'ona vodiysida turistik xizmat ko'rsatilgan mijozlar soni, turistik xizmatlar sifati samaradorligi koeffitsiyenti, sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat va turistik tashkilotlarga chetdan jalb qilingan mablag'lar hajmi hisobiga turizm xizmatlari hajmining 2028-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hududning nisbiy tarixiy-madaniy salohiyati, alohida qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarning nisbiy salohiyati, hudud tabiiy shart-sharoitlarining nisbiy salohiyati, nisbiy infratuzilma salohiyatini va vazn koeffitsiyentlari kabi omillar bog‘lanishi asosida hududning umumiy turistik resurs salohiyatini aniqlash taklifi asoslangan;

mamlakat hududlari, jumladan Farg‘ona vodiysida turizm sohasini rivojlantirishdagi turizm resurs komponentlari tahlili va dinamik qatorlardagi o‘zgarish tendensiyalari baholangan;

turizm subyektlari kesimida mutaxassislar tomonidan belgilanadigan hududlar rivojlanish salohiyati tarkibiy qismlarining hududiy qiymati parametrlari ishlab chiqilgan;

turistik korxonalarda riskni baholashning taxminiy shkalasi ishlab chiqilgan va amaliyotda foydalanish yo‘nalishlari asoslangan;

Farg‘ona vodiysi viloyatlarida turistik zonalar faoliyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari taklif etilgan;

Farg‘ona viloyati hududlarida turizm faoliyatini rivojlantirish salohiyati bo‘yicha zonal xarita ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasining rasmiy manbalaridan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi hamda O‘zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari hamda tadqiqot ishida amaliy korxona sifatida tanlab olingan “Fargona Vodiy Sayyox” va “NAMANGANTURIZM” turistik tashkilotlari manbalaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o‘tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ma’qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy, uslubiy, amaliy taklif va tavsiyalarni tarmoq va sohalardan multiplikativ samarani faol o‘zlashtirish jarayonida turizm faoliyatini rivojlantirish, hududlarda turizm industriyasining samarali faoliyat olib borishga, Farg‘ona vodiysida turizm faoliyati rivojlanishini hududiy strategiyalari asosida ta’minlashga qaratilganligi, shuningdek, hududlarda turizm faoliyatida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida soha faoliyati samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati respublikada turizm sohasini rivojlantirishda, turistik xizmatlarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishda, tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora–tadbirlarni, hududlardagi turistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi muassasalar faoliyatini takomillashtirishga doir tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek, «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislarga “Turizm: nazariya va amaliyot”, “Mintaqaviy turizm”, “Turizm

iqtisodiyoti va menejmenti” kabi fanlardan o‘quv qo‘llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manbaa sifatida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg‘ona vodiysida turistik xizmatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

hududlardagi tarixiy-madaniy, alohida qo‘riqlanadigan hududlar, tabiiy shart-sharoitlar va infratuzilmaning nisbiy salohiyat ko‘rsatkichlarini vazn koeffitsiyentlari bilan bog‘lanishini hisobga oluvchi hududning umumiy turistik resurs salohiyatini baholash uslubiyotini takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 7-yanvardagi 03-10-17-126-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida Farg‘ona vodiysining turistik resurs salohiyatini baholashda hududning nisbiy tarixiy-madaniy salohiyati – 0,08, alohida qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarning nisbiy salohiyati – 0,01, hudud tabiiy shart-sharoitlarining nisbiy salohiyati – 0,18, nisbiy infratuzilma salohiyati – 0,1 koeffitsiyentni tashkil qiladigan optimallikka erishilgan;

hududiy darajadagi turizm xizmatlari sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi turizm xizmatlarini ko‘rsatish natijasida hudud iqtisodiyotiga kirib keluvchi birlamchi va ikkilamchi mablag‘lar oqimini tarmoq faoliyatiga qayta yo‘naltirish hisobiga takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 7-yanvardagi 03-10-17-126-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlarda turistik faoliyatni yanada kengaytirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va yangi turistik obyektlarni yaratish imkoniyatlarini kengaytirgan;

Farg‘ona vodiysidagi hududlarni zonalashtirish asosida “Farg‘ona vodiysi turistik halqasi”ni tashkil etish negizida vodiylar bo‘yicha qisqa va uzoq masofali turistik marshrutlarni ishlab chiqish orqali mavjud hududiy turistik resurs salohiyatini bir butun zanjirga birlashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 7-yanvardagi 03-10-17-126-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida Farg‘ona vodiysi hududlarida turistik resurs salohiyatini optimal baholash asosida jozibador turistik xizmatlar taklifi 10-15%ga ortgan;

Farg‘ona vodiysida turistik xizmat ko‘rsatilgan mijozlar soni, turistik xizmatlar sifati samaradorligi koeffitsiyenti, sohada yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat va turistik tashkilotlarga chetdan jalb qilingan mablag‘lar hajmi hisobiga turizm xizmatlari hajmining 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish

va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 7-yanvardagi 03-10-17-126-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida turistik tashkilotlarda mikro darajadagi rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish vazifalarini optimal tashkil etish aniqligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta (shu jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika) ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola nashr qilingan. Ularning 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 149 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'yekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Hududiy yondashuv asosida turizm xizmatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida turizm xizmatlarini hududiy yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlari, turizm xizmatlarini hududiy rivojlantirishda turistik resurs salohiyatini baholashga uslubiy yondashuvlar hamda turizm xizmatlarini hududiy rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar asosida turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash modellari va mexanizmlari yoritilgan.

Turizm sohasi bugungi kunda global darajada jadal rivojlanib borayotgan xizmatlar sohasining alohida tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanish sur'ati va katta hajmdagi valyuta tushumlari alohida mamlakatlar milliy iqtisodiyoti rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bozor munosabatlari tizimida turistik tashkilotlarning barqaror ishlashi va ularning ijtimoiy-madaniy maqsadlarni bajarish qobiliyati, avvalambor, aholiga taqdim etilayotgan turistik xizmatlarning ko'lam, sifati va xizmat ko'rsatish darajasiga bog'liq bo'lib, ular iste'molchilarning xizmatlar iste'molidan shakllanuvchi umidlari va kutilmalariga javob berishi kerak.

Turizm alohida faoliyat turi sifatida uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi chuqur munosabatlarning murakkabligi bilan tavsiflanadi. Turizm sohasida qandaydir tarzda yagona hududiy boshqaruv tizimiga mos kelishi kerak bo'lgan ko'plab

korxona va tashkilotlar mavjud, bu yerda hududiy boshqaruvning muhim muammosi maqsadli bozorda uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlash bir vaqtning o'zida turizm tashkilotini boshqarishning muhim ajralib turadigan xususiyati hisoblanadi.

Turizm o'zining asosiy xususiyatlariga ko'ra iqtisodiy faoliyatning boshqa shakllaridan tubdan farq qilmaydi. Shu sababli, zamonaviy iqtisodiy jarayonlarning barcha mavjud qoidalari turizm sohasida to'liq qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, turizm uni nafaqat tovarlar savdosidan, balki xizmatlar savdosining boshqa shakllaridan ham ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatga ega. Turizm sohasida bir vaqtning o'zida ham xizmatlar, ham tovarlar savdosi mavjud (mutaxassislarning fikriga ko'ra, turizmda xizmatlarning ulushi 75%, tovarlar - 25%), shuningdek turistik xizmatlar va tovarlarni ishlab chiqarish joyida iste'mol qilish sohaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi⁶.

Jahon savdo tashkiloti (JST) tomonidan berilgan "turist" tushunchasining ta'rifiga asoslanib, fransuz mutaxassislari Rub Lancard va Rub Olelar turizm faoliyatini tadqiq etish tadqiqot, tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan bir qator asosiy usul va usullar sifatida talqin qiladilar⁷. Ushbu usullar yo'naltirilishi kerak bo'lgan asosiy narsa psixologik va ijtimoiy omillar nuqtai nazaridan odamlarning ehtiyojlarini to'liq qondirish imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, moliyaviy nuqtai nazardan turistik korxonalar tomonidan biznes yuritishning eng oqilona usullarini aniqlash orqali turistik xizmatlarga aniqlangan yoki yashirin ehtiyojlarni hisobga olishga imkon beradi.

Turizm sohasidagi yaratilayotgan turistik mahsulotning realizatsiya jarayoni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan bir qator o'ziga xos jihatlar bilan farqlanadi va bu xususiyatlarning eng asosiylaridan biri – turistik mahsulotning turistik resurs mavjud bo'lgan joyda yaratilishi va ushbu mahsulotning iste'moli ham shu yerning o'zida yuz berishidir. Bundan ko'rinadiki, turistik mahsulot turistik resurs mavjud bo'lgan joyda infratuzilma yordamida yaratiladi va sotiladi. Demak, turistik xizmatlarni rivojlantirish, eng avvalo, hududiy yondashuvga tayanadi va hududdagi turistik resurs komponentining mavjudlik darajasi, boshqacha aytganda, hududning turistik salohiyati xizmatlarni yaratuvchi turistik tuzilmani shakllantirish uchun asos hisoblanadi.

"Turistik mahsulot" tushunchasining mohiyati bugungi kunda turli tadqiqotchilar tomonidan turli yo'nalishlardan ochib berilgan va bu ta'riflarda turistik mahsulot turistik mahsulotlar va xizmatlar majmuasi sifatida qaraladi.

V.G.Gulyayev tomonidan turistik mahsulot – turistik va ekskursiya korxonalari tomonidan fuqarolarga (turistlarga) ko'rsatiladigan xizmatlar to'plami" sifatida tavsiflanadi⁸.

A.E.Saak va Yu.M.Pshenichnixlar esa turistik mahsulotga quyidagicha ta'rif beradilar: "Turistik mahsulot – bu turistning sayohati davomida paydo bo'lgan

⁶ Губжоков А.Т., Казанчева А.Т., Гозова Ф.В. Региональные особенности развития туристских услуг на основе маркетинга. Научное обозрение. Экономические науки №6, 2016. –С. 37-42


⁷ Шадуева Э.Ч., Нагоев А.Б. К вопросу развития биоэкономической политики в целях совершенствования экономики природопользования // Биоэкономика и экобиополитика. 2016. № 1 (2). –С. 84-88.

⁸ Восколович, Н.А. Маркетинг туристских услуг: учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям / Н.А.Восколович. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 207 с.

ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan moddiy iste‘mol tovarlari, nomoddiy (xizmat shaklida) iste‘mol qiymatlari to‘plami (majmuasi) va uni ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar va sotish, turistik mahsulot narxini shakllantirishdir”⁹.

Fikrimizcha, hududiy yondashuv asosida turistik mahsulotning yaratilishi hamda iste‘moli hududning yaxlitligi hamda yaxlit hududdagi tizimning turistik salohiyatiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, turizmni boshqarish turizm tizimida yuzaga keladigan munosabatlar va hodisalarning umumiyliigi va birligi bo‘lgan turizm tizimiga asoslanadi. Shunday qilib, turizm tizimi turizm korxonalari, tashkilotlari va hududlari tashqi muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan munosabatlar tizimi bilan ifodalanadi (1-rasm).

Turistik mahsulot jarayonning tashqi muhitini o‘zida aks ettiruvchi iqtisodiyot, ekologiya, siyosat, ijtimoiy muhit va iste‘molchi afzalliklarining ichki muhit – turistik hudud, turistik infratuzilma va turistik korxona faoliyati bilan uyg‘unlashuvi natijasida yaratiladi. Bunda turistik korxona infratuzilma bilan bilan yaxlit turistik hududda mahsulot (xizmat)ni yaratadi. Tizim sifatidagi bir butunlik o‘z-o‘zidan turistik salohiyat yoki resurs komponentlari mavjud bo‘lgan hududda shakllanadi va faoliyatning amalga oshishi bir butun tizimda yuzaga keladi.



1-rasm. Turistik mahsulot shakllanishining tizimli ko‘rinishdagi modeli¹⁰

⁹ Методика разработки и мониторинга реализации инвестиционного проекта в рамках федеральной целевой программы «Развитие внутреннего и въездного туризма в Российской Федерации (2011–2018 годы)» / Научно-исследовательский институт экономики туризма при Московском государственном университете экономики, статистики и информатики (МЭСИ), – Москва, 2013.

¹⁰ Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

Hududning turistik salohiyatni aniqlash uchun tadqiqot jarayonida umuman hududning iqtisodiyoti, xususan, uning ma'muriy markazlari rivojlanishiga ta'sir qiluvchi bir qator asosiy omillarni asosiy ko'rsatkich tarkibida hisobga olindi.

Hududning turistik resurs salohiyatini belgilovchi yetakchi omillar sifatida mavjud tarixiy, madaniy va infratuzilma salohiyati, tabiiy sharoitlar va alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning salohiyati belgilandi. Hududning turistik resurs salohiyatining umumlashgan ko'rsatkichi quyidagi bog'lanish asosida hisoblanadi:

$$TPC = v_1 \cdot M_n + v_2 \cdot QH_n + v_3 \cdot TSh_n + v_4 \cdot IS_n \quad (1)$$

Bu yerda: TPC – hududning umumiy turistik resurs salohiyati;

M_n – hududning nisbiy tarixiy-madaniy salohiyati;

QH_n – alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlarning nisbiy salohiyati;

TSh_n – hudud tabiiy shart-sharoitlarining nisbiy salohiyati;

IS_n – nisbiy infratuzilma salohiyati;

v_i – vazn koeffitsiyentlari.

Hudud turistik resurs salohiyati shakllanish omillarining ahamiyati va ta'siriga qarab Farg'ona vodiysi hududi uchun quyidagi vazn koeffitsiyentlari aniqlandi:

$$TPC = 3 \cdot 0,08 + 2 \cdot 0,01 + 3 \cdot 0,18 + 2 \cdot 0,1 = 0,24 + 0,02 + 0,54 + 0,2 = 1,0$$

Bunda hududning nisbiy tarixiy-madaniy salohiyati – 0,08; alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlarning nisbiy salohiyati – 0,01; hudud tabiiy shart-sharoitlarining nisbiy salohiyati – 0,18; nisbiy infratuzilma salohiyati – 0,1 ni tashkil qiladi. Aniqlangan nisbiy salohiyatlarni har bir salohiyat turi bo'yicha vazn koeffitsiyentlari bilan bog'lanishi summativ shaklda hisobga olinganda hududning umumiy turistik salohiyati aniqlanadi.

Hududlar turistik resurs salohiyatini shakllantirishning asosiy omillari hudud bo'yicha turizm faoliyatini rivojlantirishdagi xarajatlar smetalarini sarhisob qilish asosida hudud uchun xulosa ko'rsatkichini aniqlash imkonini beradi.


Dissertatsiyaning **“Farg'ona vodiysida turistik xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari tahlili asosida hududiy resurs salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Farg'ona vodiysida turizm xizmatlarining rivojlanish tendensiyalaridagi o'zgarishlar tahlili, hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish hamda hududlarda turistik xizmatlarni rivojlantirishda raqobat ustunligi va risklarni pasaytirish imkoniyatlari tahlili amalga oshirilgan.

Turizm xizmatlarining rivojlanishida innovasion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarning keng joriy qilinishi va ekologik barqarorlikka bo'lgan ehtiyoj tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon turistik mahsulotlarning xilma-xilligi, sayyohlarning talablariga moslashish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bilan bog'liq yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga,

pandemiya davrida turizm xizmatlari bozorida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi, bu esa sektorni raqamlashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va mahalliy turizmni rivojlantirish kabi yo'nalishlarda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Turizm xizmatlari tendensiyalarining o'zgarishi va rivojlanishi mamlakatlar iqtisodiyotiga yangi imkoniyatlar ochib beradi. Shu bilan birga, sohaning kelajakdagi istiqbollari raqamli transformatsiya va ekologik barqarorlik kabi jarayonlarga qanchalik tez moslasha olishiga bog'liq bo'ladi.

So'nggi yillarda Farg'ona vodiysiga sayohat qiluvchi mahalliy va xalqaro turistlar soni oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish maqsadida transport infratuzilmasini yaxshilash, yangi turistik maskanlar yaratish va madaniy obidalarni ta'mirlash kabi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirgan. Shu sababli, 2022-2023-yillarda Farg'ona vodiysiga kelgan sayyohlar soni avvalgi yillarga nisbatan ko'paygan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining qo'shni davlatlar bilan sayyohlik vizalari bo'yicha hamkorlikni rivojlantirgani turistlar oqimini oshirishda muhim omil bo'ldi. Shuningdek, Farg'ona vodiysida mehmonxonalar, restoranlar va boshqa turistik xizmat ko'rsatish ob'ektlari sonining ortishi ham mintaqaga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonining ortishiga ta'sir ko'rsatmoqda (2-rasm).




2-rasm. Farg'ona vodiysidagi mehmonxona va joylashtirish vositalari sonining o'zgarish dinamikasi¹¹

2010-yilda Farg'ona vodiysidagi mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarining soni 48 taga teng bo'lib, birgina Farg'ona viloyatida jami 21 ta

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari bo'lgan hamda bu ko'rsatkich Farg'ona vodiysidagi joylashtirish ob'ektlarining 43,8 %ini tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda 2010-yilda Farg'ona vodiysidagi jami mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari sonida Andijon shahri 16 ta, Farg'ona shahri 10 ta hamda Namangan shahri 6 ta ko'satkich bilan yuqori o'rinlarni egallagan va Farg'ona vodiysidagi jami joylashtirish ob'ektlari sonidagi 64,5 % qismi Andijon, Farg'ona hamda Namangan shaharlari hissasiga to'g'ri kelgan.



3-rasm. Turistik faoliyatni amalga oshirgan tashkilotlar soni¹²

2010-yildan 2020-yilgacha Farg'ona vodiysidagi mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari sonida o'sish kuzatildi va 2020-yilda 2010-yilga nisbatan 3 barobarga ortdi. 2021-yilda COVID–19 pandemiyasidan keyin Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan joylashtirish ob'ektlari sonida keskin pasayish kuzatildi va 2020-yilga nisbatan viloyatdagi joylashtirish ob'ektlari soni 6,4 barobarga kamaydi. Pandemiyadan keyin Andijon viloyatidagi mehmonhona va boshqa joylashtirish vositalari soni o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, Namangan viloyatida esa 11,1 % o'sish kuzatildi. Biroq, Farg'ona viloyatidagi joylashtirish ob'ektlari sonidagi pasayish Farg'ona vodiysidagi joylashtirish ob'ektlari sonining 55 % ga kamayishiga olib keldi.

2010-yilda Farg'ona vodiysida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar soni 10 tani tashkil etgan hamda viloyatlar bo'yicha tahlil qilinganda Andijon viloyati hissasiga 5 ta, Farg'ona viloyati hissasiga 4 ta va Namangan viloyati hissasiga 1 ta korxona to'g'ri kelgan (3-rasm). Shuningdek, COVID–19

¹² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

pandemiyasi turistik firmalar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatgan va natijada 2021-yilda Farg'ona vodiysidagi turistik faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar sonida ham pasayish kuzatilgan. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda 2010-yilda Farg'ona vodiysidagi eng ko'p turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar sonida Andijon shahri 5 ta, Farg'ona shahri 2 ta hamda Namangan shaharlari 1 ta ko'rsatkich bilan yetakchilik qilgan (2.1-jadval).

2023-yilda Farg'ona vodiysida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar soni 2010-yilga nisbatan 3,7 barobarga ortgan. Shuningdek, tahlil qilinayotgan 14 yil o'raig'ida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar soni 2018-yilda 2010-yilga nisbatan 90 % ga oshganligini ko'rishimiz mumkin. 2022-yildagi turistik faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar sonini hududlar bo'yicha tahlil qilganimizda ko'rishimiz mumkinki, Andijon shahri 2010-yilga nisbatan 40,0 % ga pastlagan bo'lsa, Farg'ona shahri 50,0 % ga, Namangan shahri esa 100 % oshganligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Farg'ona vodiysi yirik shaharlarida turistik faoliyatni amalga oshirgan korxonalar soni¹³

Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2022-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarishi
Farg'ona sh.	2	2	2	1	1	2	2	2	5	5	1	4	3	150
<i>Jamiga nisbatan ulushi</i>	20,0	18,2	12,5	8,3	14,3	25,0	18,2	16,7	26,3	29,4	9,1	33,3	30,0	x
Qo'qon sh.	2	2	2	1	1	2	1	2	3	2	1	1	2	100
<i>Jamiga nisbatan ulushi</i>	20,0	18,2	12,5	8,3	14,3	25,0	9,1	16,7	15,8	11,8	9,1	8,3	20,0	x
Marg'ilon sh.	0	1	4	0	0	0	0	0	1	0	1	1	0	0
<i>Jamiga nisbatan ulushi</i>	0,0	9,1	25,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	5,3	0,0	9,1	8,3	0,0	x
Andijon sh.	5	5	7	9	4	3	6	7	8	6	5	3	3	60
<i>Jamiga nisbatan ulushi</i>	50,0	45,5	43,8	75,0	57,1	37,5	54,5	58,3	42,1	35,3	45,5	25,0	30,0	x
Namangan sh.	1	1	1	1	1	1	2	1	2	4	3	3	2	200
<i>Jamiga nisbatan ulushi</i>	10,0	9,1	6,3	8,3	14,3	12,5	18,2	8,3	10,5	23,5	27,3	25,0	20,0	x
Jami	10	11	16	12	7	8	11	12	19	17	11	12	10	100

Turistik xizmatlar rivojlanishi va ularning raqobat ustunligining ortishiga ta'sir etuvchi omillar tasnifidan kelib chiqib, turistik xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan risklarni tahlil qilish talab qilinadi.

Turistik xizmatlarni rivojlantirishda riskni aniqlash turistik xizmatlarni sifat jihatdan takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan noaniqlik yoki xizmatlarni

¹³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

diversifikatsiyalash faoliyati bilan bog'liq bo'lgan turistik xizmatlarning oxirgi foydalanuvchilari uchun noqulay natijalar ehtimoli bilan bog'liqlikni to'g'ri deb hisoblash kerak.

Amaliyotda, turistik korxonalar faoliyatidagi risklarni baholash uchun ikki guruhga bo'linadigan turli usullar qo'llaniladi:

1. Turistik korxonada risklarni sifat jihatdan baholash usullari.
2. Turistik korxonalarda risklarni miqdoriy jihatdan baholash usullari.

Tadqiqot jarayonida risk koeffitsiyenti qiymatlariga asoslangan holda riskni baholash shkalasi taqdim etadi. O'lchov to'rtta chegara mezonlaridan iborat bo'lib, minimal riskdan qabul qilinishi mumkin bo'lmagan riskkacha o'z ichiga oladi.

2-jadval

Turistik korxonalarda riskni baholashning taxminiy shkalasi¹⁴

Riskni baholash	Risk koeffitsiyenti qiymati
Minimal risk	0-0,1
Ruxsat etilgan risk	0,1-0,3
Yuqori risk	0,3-0,6
Qabul qilinishi mumkin bo'lmagan risk	0,6 dan ortiq

k_i risk koeffitsiyenti ikki yoki undan ortiq investisiya alternativlarini solishtirganda kutilayotgan foyda va zararni o'zaro bog'lash orqali risk darajasini baholashga imkon beradi:

$$k_i = \frac{F_{ri}}{Y_i}$$

Bu yerda

k_i - i-variantning risk koeffitsiyenti;

F_{ri} - i-variantning kutilayotgan foydasi;

Y_i - i-variantning kutilayotgan yo'qotishlari.

2. Risk ko'rsatkichlarini nuqtaviy baholash.

Bunda baholanayotgan ko'rsatkich - bu natijaning haqiqiy qiymatini kerakli qiymatdan (mo'ljallangan, rejalashtirilgan, prognoz qilingan) kamroq bo'lish ehtimoli:

$$R = p(x < D_{tr})$$

Bu yerda

R - riskni baholash ko'rsatkichi (tarqatish funksiyasi);


p - risk ehtimoli;

D_{tr} - talab qilinadigan (rejalashtirilgan) natija qiymati (haqiqiy raqam);

x - tasodifiy o'zgaruvchi sifatida natijaning joriy qiymati.

Ushbu ko'rsatkichdan foydalanish uchun qiymatlarning taqsimlash qonunining turi va parametrlarini bilish kerak. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, turistik korxonalardagi risk darajasini baholashning sxematik ko'rinishi taqdim etildi (4-rasm).

¹⁴ Шпер В. Л. Риски и их оценка // Методы менеджмента качества. - 2016. - № 1. - С. 56-57.




4-rasm. Turistik korxonalarda riskni nuqtali baholashning sxematik ko'rinishi¹⁵

3. Risk indeksini intervalli baholash.

O'z faoliyatining riskini baholashni amalga oshiradigan tadbirkor ma'lum chegaralarda natija olish ehtimolini aniqlashdan iborat bo'lgan intervalli yondashuvni ham o'rganishi kerak, chunki nuqtali baholash baholash jarayonlarining to'g'riligiga aniq ishonch hosil qilish imkonini bermaydi.

Intervalli riskni baholash grafik tarzda ishlab chiqildi (5-rasm).



5-rasm. Turistik korxonalardagi risklarni oraliq baholashning sxematik ko'rinishi¹⁶

$[x_1 x_2]$ oralig'ida qiymatlarni olish ehtimoli quyidagi natijaga teng:

$$R = p(x_1 \leq x \leq x_2) = F(x_2) - F(x_1)$$

Yuqorida keltirilgan barcha risklarni tahlil qilish usullarini hisobga olgan holda ma'lum bir usulni tanlashga ko'plab omillar ta'sir qiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin:

- riskning har bir turi o'ziga xos tahlil usullari va ularni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanishni nazarda tutadi;
